

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

JALOLOVA FERUZA NORMURODOVNA

**“O‘GAY ONA” KONSEPTINING LINGVOMADANIY TALQINI
(INGLIZ VA O‘ZBEK XALQ ERTAKLARI MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Jalolova Feruza Normurodovna

“O‘gay ona” konseptining lingvomadaniy talqini
(ingliz va o‘zbek xalq ertaklari misolida)..... 3

Жалолова Феруза Нормуродовна

Лингвокультурная интерпретация концепта “мачеха”
(на примере английских и узбекских народных сказок)..... 27

Jalolova Feruza Normurodovna

Linguacultural interpretation of the concept of “stepmother”
(in the example of english and uzbek folk tales)..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 57

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

JALOLOVA FERUZA NORMURODOVNA

**“O‘GAY ONA” KONSEPTINING LINGVOMADANIY TALQINI
(INGLIZ VA O‘ZBEK XALQ ERTAKLARI MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Fil1800 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsuull.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yusupova Shoira Botirovna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Mamatov Abdi Eshonqulovich
filologiya fanlari doktori, professor

Sulaymonova Nilufar Jabborovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori Ph.D., dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti


Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2023-yil « 28 » 12 soat 12⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)


Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (280 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil « 19 » 12 kuni tarqatildi.

(2023-yil « 19 » 12 da 1- raqamli reyestr bayonnomasi)


N.Z. Normurodova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, filol.f.d., dotsent


Q.U. Pardaev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., dotsent


D.R. Yusupova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davrida sistem-struktur tilshunoslikdan keyin yuzaga kela boshlagan generativ nazariya, psixolingvistika, lingvokognitologiya, lingvomadaniyatshunoslik, pragmalolingvistika va kompyuter lingvistikasi singari zamonaviy yo‘nalishlarda ishlab chiqilgan antropotsentrik tamoyillar va tadqiqot usullari til yoki nutq birliklarini qiyosiy tipologik tahlil qilish orqaligina inson lisoniy faoliyati haqida to‘laqonli tasavvur hosil qilishi mumkinligini ko‘rsatmoqda. Folklorshunoslikda o‘zbek xalq ertaklarining ingliz tiliga o‘girilishi hamda o‘zbek va ingliz xalq ertaklarining qiyosiy-tipologik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari nazariy hamda amaliy jihatdan g‘oyatda muhimdir.

Dunyo tilshunosligida xalqlar madaniyati kishilar o‘rtasidagi munosabatlarning muayyan bir shakli sifatida tadqiq qilinayotgan yo‘nalish - lingvomadaniyatshunoslik bugungi kunda jadal rivojlanayotgan, tilda o‘z ifodasini topayotgan va barqarorlashayotgan soha sifatida talqin qilish mumkin. Ijtimoiy ongning shakllanish omillarini tahlil qilish turli madaniyatlarning o‘zaro munosabatlarini va o‘zaro tushunish mexanizmlarini chog‘ishtirma tadqiq qilish imkoniyatlarini vujudga keltirdi. Bu esa, o‘z navbatida, tilshunoslikda til va madaniyat munosabatlarining tadqiq qilinishiga asoslangan yangi tadqiqotlarning paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi. Bugungi kunda zaruriy tadqiqotlardan biri hisoblangan ushbu dissertatsiya mavzusining dolzarbligi – bir-biridan madaniy, mintaqaviy va hududiy uzoq bo‘lgan ingliz va o‘zbek xalqlari ertaklaridagi “stepmother/o‘gay ona” konseptining o‘xshash va farqli jihatlarini ochib berish orqali shu xalqlarning turmush tarziga xos realiyalar mushtarakligini isbotlashda o‘z aksini topadi.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni xalqaro dasturlar asosida o‘qitishni yo‘lga qo‘yish masalasi dolzarb bo‘lib turgan ayni davrda ingliz va o‘zbek xalq ertaklarining qiyosiy-tipologik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan izlanishlar muhim manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida belgilangan “xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish”¹ vazifasining ijrosini ta’minlashda ham shunday ko‘lamdagi chog‘ishtirma izlanish natijalari dolzarblik kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847сонли “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизimini 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони; Халқ сўзи, 09.10.2019. № 209 (7439).

oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining: I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Lingvomadaniyatshunoslik ilmiy va o'quv fani sifatida tilshunoslikda XX asrning 90-yillari o'rtalarida tilga madaniy xazina sifatida e'tiborning kuchayishi natijasida hayotga tatbiq etildi, bu jarayonga N.N.Boldirev, A.P.Babushkin, S.G.Vorkachyov, V.V.Vorobyov, V.V.Krasnix, V.A.Maslova, V.N.Teliya, A.T.Xrolenko, Z.D.Popova, I.A.Sternin, G.G.Slishkin, A.A.Ufimseva, N.D.Arutyunova, A.G.Gak, Y.S.Kubryakova, J.Lakoff, M.Jonson, Sh.S.Safarov, D.U.Ashurova, A.Hojiev, O'.Q.Yusupov, A.E.Mamatov, M.R.Galieva, M.M.Mirtojiev, A.Nurmonov, D.S.Xudayberganova, Sh.S.Sirojiddinov, N.Mahmudov, G.H.Boqieva²; etnolingvistika sohasida Y.D.Apresyan, A.Vejbiskaya, V.V.Ivanov, V.V.Kolesov, M.V.Pimenova, V.I.Postovalova, Y.A.Sorokin, N.I.Tolstoy, V.N.Toporov, T.V.Sivyan, Y.S.Yakovleva, E.Sepir, B.Uorf, I.Jabborov, H.Ismoilov, O.Bo'riev, A.Ashirovlar³; etnografiyadan Y.V.Bromley, J.H.Gumilev, L.Morgan, G.Alimov,

² Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. –Тамбов: ТГУ, 2002. – С.123; Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – Воронеж: ВГУ, 1996. – С.104; Воробьев В.В. Лингвокультурология. – Москва: РУДН, 2008. – С.340; Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. Курс лекций. – Москва, «Гнозис», 2002. – С.284; Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику. – Москва: Флинта Наук, 2007. – С.296; Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Наука, 1996. – С.288; Попова З. Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. – Москва: Издательство АСТ, Восток-Запад, 2007. – С.315; Слышкин Г.Г. Лингвокультурный концепт: номинативная плотность и номинативная диффузность//Аксиологическая лингвистика: проблемы и перспективы. – Волгоград: Колледж, 2004. – С. 96–98; Арутюнова Н.Д. Актуальные проблемы современной лингвистики. – Москва: Флинта, 2007. – С. 108-110; Лакофф Дж, Джонсон М. Метафоры которые мы живем: Пер. с англ. / Под ред. И с предисл. А.Н. Баранова. Изд. 2-е. – Москва: ЛКИ, 2008. – С. 256; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 92; Ашурова Д.У. Перспективы научных исследований в свете новых направлений лингвистики // Филология масалалари. – Тошкент, 2004. – №4. – Б. 37-40; Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – Б.168; Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. – Ташкент: Фан, 2007. – С.125; Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов тавлудининг 70 йиллигига бағишланган илмий-амалий анжумани материаллари). – Андижон, 2012; Галиева М.Р. Религиозное сознание в языковой картине мира // Вестник Московского государственного лингвистического университета. Гуманитарные науки. – № 5; Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б.232; Худайбергanova Д.С. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик тадқиқи: Филол. фан. док-ри. дисс. автореф. – Тошкент, 2015. – Б.18; Сирождидинов Ш. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари. – Тошкент: "Янги аср авлоди", 2011. – Б.132.

³ Апресян Ю.Д. Исследования по семантике и лексикографии. Т.1. Парадигматика. – Москва: URSS, 2009. – С. 356; Вежбицкая А. Метатекст в тексте // Новое в зарубежной лингвистике. – Москва: Радуга, 1978. Вып. УШ. – С. 402–421; Колесов, В.В. Философия русского слова. СПб: Петерб. Востоковедение, 2004. – С. 240; Пименова, М. В. Типы концептов [Эл. ресурс]. URL:[http://www.kuzspa.ru/diss/conf_27_28/5_pimenova.doc.](http://www.kuzspa.ru/diss/conf_27_28/5_pimenova.doc;);

M.Bikjanova, A.Boltaev, Y.G'ulomov, Sh.Inog'omov, T.Mirtyosov, M.Saidjonov, X.Husanboev, K.Yusupov; etnologiya bo'yicha S.B.Lure, G.T.Tavadov, I.Jo'raboev, Sh.Nurullaeva, M.Qahhorova; kulturologiyaga oid P.S.Gurevich, M.S.Kagan, A.S.Karmin, A.P.Markov, Y.M.Lotman, V.M.Rozin, P.A.Sapronov, A.Y.Flier, E.Sepir, V.Muxamedjanova, I.Suvonkulov, R.Mardonov, M.Abdullaev; matn nazariyasi, mifologiya va folklor sohasida D.A.Evans, M.Green, E.Donoghue, L.Andreu, A.Aarne, S.Tompson, A.H. Heiner, J.J.Lizka, N.Rove, J.Zipes, V.Y.Propp, N.B.Mechkovskaya, E.V.Pomeranseva, M.M.Baxtin, V.I.Karasik, V.V.Vinogradov, S.Y.Nikitina, J. P.Tolkien, X.Karpenter, S.Todorov, H.Zarifov, T.Mirzaev, K.Imomov, O.Safarov, M.Jo'raev, D.O'raeva kabi tilshunos olimlar o'z hissalarini qo'shdilar.

Shuningdek, xalq og'zaki ijodida ertak janrini o'rganishning lingvomadaniy asoslari bo'yicha D.V.Berejkova, G.V.Tokarev, E.P.Chakalova, V.A.Golovko, G.Z.Imaeva, I.V.Pavlyutenkova, M.Simenson, M.Mesnil, O.S.Qayumov, A.Musaqulov, D.Raximboeva, J.S.Eshonqulov⁴lar tomonidan himoya qilingan dissertatsiyalar ilmiy manba sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetining "Turli tizimdagi tillarning tipologik va chog'ishtirma xususiyatlari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlar doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek xalq ertaklarida "stepmother/o'gay ona" konseptining lingvomadaniy xususiyatlari lisoniy voqelanishini chog'ishtirgan holda ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

konsept, konseptosfera, olamning lisoniy manzarasi, olamning konseptual manzarasi kabi lingvomadaniyatshunoslik tushunchalarini yoritish;

ingliz va o'zbek tillarida "stepmother/o'gay ona" konseptini struktur-semantik tahlil qilish;

Топоров В.Н. Миф. Ритуал. Символ. Образ: Исслед. в области мифопоэтического. – Москва: Прогресс. 1995. – С. 624; Яковлева Т.Е. Системный анализ английских переходных глаголов. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ленинград, 1980. – С. 21; Жабборов И. «Ўзбеклар аънавий турмуши ва маданияти» – Ташкент, 2004. Исмоилов Ҳ. «Ўзбек тўйлари» – Ташкент, 1994; Бўриев О. ва бошқалар «Ўзбек оиласи тарихи». – Ташкент, 1995; Насриддинов Қ. «Ўзбек дафн ва таъзия маросимлари». – Ташкент, 1996; Аширов А. «Авесто» дан мерос маросимлар» – Ташкент, 2001.

⁴ Қаюмов О.С. Ўзбек фольклорида пари образи (генезиси ва поэтикаси). – Фил.фан.ном.дисс. – Тошкент, 1999. – Б. 20-21.; Бережкова Д. В. Понятие «доброта» в концептуальном пространстве английской народной сказки: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук: № 10.02.04. – Москва: МГУ, 2011. – С. 26; Токарев, Г.В. Теоретические проблемы вербализации концепта «Труд» в русском языке Текст. Автореф. дис... докт. филол. наук. – Волгоград, 2003. – С. 46; Чакалова Э. П. Языковая репрезентация национальной картины мира в художественном тексте (на материале английского и русского языков): Автореф. дисс... канд. филол. наук. –Краснодар, 2006. – С. 28; Головкин В.А. «Русалочьи сказки» А.Н.Толстого: жанрово-стилевое своеобразие в историко-генетическом аспекте. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Краснодар: 2021. – С. 29; Имаева Г.З. Народная сказка и её литературные переложения. Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Казань: 2010. – С. 48; Павлютенкова И.В. Сказка: философско-культурологический анализ. Автореф. дис... докт. филол. наук. –Ростов-на -Дону, 2003. – С. 24; Мусакулов А. Ўзбек халқ лирикасининг тарихий асослари ва бадиияти: Филол. фанлари д-ри дисс. автореф. – Ташкент, 1995. – Б.41; Рaxимбoевa Д. Сравнительная типология узбекских народных пословиц. Дисс.кан.фил.наук. – Ташкент, 2002; Эшонкулов Ж.С. Ўзбек фольклорида дев образининг мифологик асослари ва бадий талкини: Филол. фанлари номз. дисс. автореф. – Ташкент, 1996. Б.24.

g'arb va sharq xalqlari adabiyotida "o'gay ona" va "o'gay qiz" konseptlarini tarixiy-genetik jihatdan o'ziga xosligini asoslab berish;

ingliz va o'zbek xalq ertaklaridagi "stepmother/o'gay ona" konseptining qo'llanilishida o'xshashliklar mavjudligini dalillash;

ingliz va o'zbek xalq ertaklarida "stepmother/o'gay ona" konseptining farqli jihatlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o'zbek xalq ertaklaridagi "stepmother/o'gay ona" konsepti tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini "stepmother/o'gay ona" konseptining lingvomadaniy xususiyatlarini ingliz va o'zbek xalq ertaklarini chog'ishtirma talqin etish asosida yoritib berish imkoniyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda tavsifiy, chog'ishtirma, struktur-semantik, konseptual tahlil, kross-madaniy va tarixiy-genetik usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillaridagi "stepmother/o'gay ona" konseptining struktur-semantik xususiyatlarini chog'ishtirish asosida ularning bosh va ko'chma ma'nolari, matn va lug'at tarkibidagi tuzulishi kabi leksik-grammatik qurilishi aniqlangan;

g'arb va sharq xalqlari adabiyotida "o'gay ona" va "o'gay qiz" konseptlarini tarixiy-genetik jihatdan chog'ishtirish asosida bir janrning yuzaga kelishida ikkinchi birining manbalik vazifasini o'tashi, bir janrga mansub asarning boshqa bir janrdagi asar tarkibida uchrashi kabi qator o'ziga xos xususiyatlar mavjudligi asoslangan;

ingliz va o'zbek xalq ertaklaridagi "stepmother/o'gay ona" konsepti chog'ishtirilayotgan ikkala tilda ham berahm, beshavqat, yovuz ayol sifatida idrok qilinishi kabi lingvomadaniy umumiylik mavjudligi dalillangan;

ingliz va o'zbek xalq ertaklarida "stepmother/o'gay ona" konsepti o'ziga xos xususiyatli inson fenomeni ekanligi hamda o'gay onaning motivida, xarakterida, tashqi qiyofasida, jamiyatda tutgan o'rnida va turmush tarzlarida farqli jihatlar borligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dissertatsiya natijalaridan qiyosiy adabiyotshunoslik, qiyosiy tipologiya, tarjimashunoslik fanlari bo'yicha nazariy va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda, lingvomadaniyatshunoslik sohalariga oid maxsus seminarlarni tashkil qilishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi aniqlangan;

ingliz va o'zbek tillarida "stepmother/o'gay ona" konsepti keng ko'lamli bo'lganligi bois ular mavzuiy guruhlariga ajratilgan hamda "stepmother/o'gay ona" konseptosferasining nominativ maydoni tuzilgan;

ertak matnlarining lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash ingliz va o'zbek xalq ertaklarida mavjud bo'lgan turli darajadagi matn elementlari (til birliklari, obraz, motiv, konsept) ni chog'ishtirma tasvirlash yo'li bilan amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi obyektga yondashuv va qo'llanilgan usullarning tadqiqot maqsadiga mosligi, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, tanlab olingan badiiy manbalarning tadqiqot

predmetiga muvofiqligi, nazariy fikr va xulosalar qiyosiy-tipologik, lingvomadaniy tahlil metodlari vositasida chiqarilgani, nazariy qarashlar va xulosalarning amaliyotga tadbiiq etilganligi, natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati konseptual tahlil obyekti sifatidagi “o‘gay ona” konsepti orqali “olamning lisoniy manzarasi”da odamning ichki qiyofasini tasvirlash usuli ishlab chiqilganligi, bunday tahlil usuli insonning ma’naviy turmushini aks ettiruvchi alohida konseptlar tahlilidan hosil bo‘lishi, yoki boshqa semantik va semiotik kategoriyalar tahlili orqali shakllantirilishi imkoniyatida namoyon bo‘lishi, erishilgan natijalar olam lisoniy manzarasi lingvomadaniyatshunoslikning asosiy tushunchalaridan biri sifatida insonning nutqida aks etadigan olamni idrok etishi hodisasi uning asosini tashkil etishi qator muammolar yechimini izlash borasida ma’lum darajada nazariy ahamiyatga molik ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati, dastavval, uning natijalaridan filologiya – xorijiy tillar, o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishlarida hamda an’anaviy folklorshunoslik fani bo‘yicha kengroq bilim olish imkonini yaratishda, “Lingvomadaniyatshunoslik”, “Qiyosiy adabiyotshunoslik”, “Chog‘ishtirma tilshunoslik”, “Tarjimashunoslik” fanlariga oid mavzularni chuqur o‘zlashtirishda, magistratura mutaxassisliklarida “Tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari” fani bo‘yicha o‘quv adabiyotlari yaratishda manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek xalq ertaklari misolida “O‘gay ona” konseptining lingvomadaniy talqini bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

g‘arb va sharq xalqlari adabiyotida “o‘gay ona” va “o‘gay qiz” konseptlarini tarixiy-genetik jihatdan chog‘ishtirish asosida bir janrning yuzaga kelishida ikkinchi birining manbalik vazifasini o‘tashi, bir janrga mansub asarning boshqa bir janrdagi asar tarkibida uchrashi kabi qator o‘ziga xos xususiyatlarga oid xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 2020-2021-yillarga mo‘ljallangan 561624–YeRR–1–2015–UK–EPPKA2–CBHE–SP–ERASMUS + CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 30-avgustdagi 2386/30.02.01-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, o‘quvchilarning lingvistik va kommunikativlik qobiliyatini yaxshilashda, “Qiyosiy adabiyotshunoslik”, “Chog‘ishtirma tilshunoslik”, “Tarjimashunoslik” va “Lingvomadaniyatshunoslik” fanlaridan bilimini oshirishda hamda ta’lim tizimi jarayonini mustahkamlash maqsadida yaratilgan uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqishga xizmat qilgan;

ingliz va o‘zbek xalq ertaklarida “stepmother/o‘gay ona” konsepti o‘ziga xos xususiyatli inson fenomeni ekanligi hamda o‘gay onaning motivida, xarakterida, tashqi qiyofasida, jamiyatda tutgan o‘rnida va turmush tarzlaridagi farqli jihatlariga oid xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan Yevropa Ittifoqining TEMPUS dasturi 2020-2021-yillarga mo‘ljallangan Tempus Project

544161– TEMPUS–1–2013–1–UK–TEMPUS–JPCR Aston University DeTEL “Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes” mavzusidagi loyihada foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 30-avgustdagi 2385/30.02.01-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, zamonaviy avlod darsliklarini lingvomadaniy, lingvodidaktik materiallar bilan boyitishga, madaniyatlararo muloqot jarayonlarini to’g’ri qo’llash sifatini oshirish imkoni yaratilgan;

ingliz va o’zbek xalq ertaklaridagi “stepmother/o’gay ona” konsepti chog’ishtirilayotgan ikkala tilda ham berahm, beshavqat, yovuz ayol sifatida idrok qilinishiga oid tahliliy mulohazalardan O’zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O’zbekiston” teleradio kanali DUK muharririyati tomonidan tayyorlangan “Katta tanaffus” va “Ta’lim va taraqqiyot” nomli radioeshittirishlarning ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O’zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 10-maydagi 04–36–578-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, “stepmother/o’gay ona” konseptining lingvomadaniy talqini va xususiyatlari, ingliz va o’zbek xalq ertaklarida qo’llanilishidagi o’ziga xos o’xshashlik va farqli jihatlari, tarixiy-genetik xususiyatlari borasidagi bahs-munozaralar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Dissertatsiya natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o’tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha 17 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 2 tasi xorijiy va 7 tasi respublika jurnallarida e’lon qilingan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va ilovalardan iborat. Tadqiqotning asosiy hajmi 124 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy qimmati yoritilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqotning joriylanishi, natijalarning e’lon qilingani hamda dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Olam lisoniy tasvirida konseptosferalar tadqiqining nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida **“Milliy konseptosferalar tadqiqining lingvomadaniyatshunoslikka doir aspektlari”**ning mohiyati, tilshunoslikda olamning lisoniy va konseptual manzarasi tushunchalari hamda xalq og’zaki ijodida ertak janrini o’rganishning lingvomadaniy asoslari ilmiy nazariy jihatdan asoslangan va ularga munosabat bildirilgan.

Lingvomadaniyatshunoslik ilmiy va o’quv fani sifatida tilshunoslikda XX asrning 90-yillari o’rtalarida tilga madaniy xazina sifatida e’tiborning kuchayishi

natijasida hayotga tatbiq etildi, bu jarayonga Y.D. Apresyan, N.D. Arutyunova, A. Vebiskaya, V.V. Vorobyov, V.A. Maslova, E. Sepir, Y.S. Stepanov, V.N. Teliya, N.I. Tolstoy kabi rus tilshunoslari, ingliz olimlaridan J.Lakoff, M.Jonson, E.Sepir, B.Uorf, shuningdek, o'zbek tilshunoslari Sh.S.Safarov, A.Hojiev, O'.Q.Yusupov, A.E.Mamatov, Sh.S.Sirojiddinov, D.U.Ashurova, M.R.Galieva, M.M.Mirtojiyev, A.Nurmonov, N.Mahmudov, G.H.Boqieva, N.M.Djusupovlar o'z hissalarini qo'shdilar. Hozirda lingvomadaniyatshunoslik dunyo tilshunosligida eng rivojlangan sohalardan biri hisoblanadi. Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o'ziga xos jihatlarning tilda aks etishini o'rganish lingvomadaniyatshunoslikning asosiy maqsadidir. Olamning lisoniy tasviri, madaniyatning asosiy konseptlari majmui bo'lgan konseptosferani, lisoniy tafakkurni tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga mos keladigan madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo'lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvomadaniyatshunoslikning asosiy vazifalari hisoblanadi.

“Konsept” atamasi tilshunoslikda olimlar tomonidan turlicha ilmiy talqin qilingan bo'lib, V.A.Maslova tomonidan aytilgan ta'rif ushbu atama mohiyatini aniqroq aks ettirgan: “konsept lingvomadaniy o'ziga xoslikka ega bo'lgan ma'lum bir etnomadaniyat vakillarini u yoki bu tarzda tavsiflovchi semantik tuzilmadir”⁵. Konseptlarni o'rganish xalqning dunyoqarashini, milliy madaniy qadriyatlarini, har bir xalqning tarixiy tajribalarini aniqlash imkonini beradi. Konsept, o'z o'rnida, inson tafakkurining mahsuli hisoblanadi. Biz o'z tadqiqot ishimizda “konsept” atamasining quyidagi ta'rifi ergashishni ma'qul topdik: konsept – bu shaxsning o'zi, tevarak-atrofidagi narsalar, hodisalar haqidagi tushunchalarni o'z ichiga olgan mental shakllanish bo'lib, o'rab turgan borliqni bilishning barcha aspektlari natijalarini umumlashtiruvchi birlikdir⁶.

Konseptlar majmui konseptosferani tashkil qiladi. Konseptosfera tushunchasi esa ko'p qatlamli bo'lib, u o'z ichiga individual, guruhiiy va milliy konseptosferalarni oladi. Tilning milliy konseptosferasi milliy madaniyat bilan bog'liq bo'lib, tarixiy va diniy tajribalar bilan aloqada bo'ladi. D.S.Lixachev konseptosferalar yoki bo'lmasa, ideosferalar deb atashni taklif qiladi: “umuman olganda, individual shaxsning so'z boyligida, shuningdek, butun tilda kashf etilgan jami tushunchalar yig'indisini konseptosfera deb atashimiz mumkin”⁷. Konseptosferalar tadqiqiga bag'ishlangan ko'pgina ilmiy ishlarda ta'kidlanishicha, konseptosferalar hududiy tuzilmaga ega, ya'ni unda markaz va sarhadlar ajratiladi. Markaz qismidan iste'molda nisbatan faolroq bo'lgan konseptlar joy oladi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli **“Tilshunoslikda olamning lisoniy va konseptual manzarasi tushunchalari”** deb nomlangan. Olamning lisoniy

⁵ Маслова В.А. Введение в когнитивную лингвистику. – Москва: Флинта Наук, 2007. – С. 50.

⁶ Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность: От теории словесности к структуре текста. Антология / Под общ. ред. В.П. Нерознака. – Москва: Academia, 1997. – С. 267–279; Карасик, В.И. Языковой круг: личность, 2. концепты, дискурс. – Москва, 2004. – С. 96; Слышкин Г.Г. Лингвокультурный концепт: номинативная плотность и номинативная диффузность//Аксиологическая лингвистика: проблемы и перспективы: материалы междунар. науч. конф. – Волгоград: Колледж, 2004. – С. 96–98; Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. – Москва: Академический проект, 2004. – С. 991.

⁷ Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Русская словесность. – Москва: Academia, 1997. – С. 281.

manzarasi lingvomadaniyatshunoslikdagi asosiy tushunchalardan biri bo'lib, u insonning nutqida aks etadigan olamni idrok etishi hodisasiga asoslanadi. Til ilmiga birinchilardan bo'lib, "olamning lisoniy manzarasi" tushunchasini iste'molga kiritgan olim I.L.Vaysgerberdir. Keyinchalik olam manzarasi va olamning lisoniy manzarasi munosabatiga doir muammolar V.Gumboldt, G.A.Brutyan, N.D.Arutyunova, G.D.Gachev, B.A.Serebrennikov, G.V.Kolshanskiy, O.Y.Medvedeva, L.A.Mikeshina, T.V.Sivyan, V.I.Postovalova, Sh.S.Safarov, G.H.Boqieva, A.E.Mamatov, M.R.Galieva, D.B.Agzamova va boshqalarning tadqiqot ishlarida atroflicha o'rganilgan. Hozirgi zamon tilshunosligida olamning lisoniy manzarasi deganda, an'anaviy ravishda, tilda o'z aksini topgan olam haqidagi bilimlar majmuasi tushuniladi: "Tillar qancha bo'lsa, olamning shuncha milliy lisoniy manzarasi mavjud, bu tillarning har biri jamoaviy etnik tafakkurning koinotdagi inson mavjudligini anglash va kategoriyalashtirish borasidagi ko'p asrlik faoliyatining noyob natijalarini aks ettiradi"⁸.

Olamning konseptual manzarasi konseptlardan tashkil topgan muayyan obrazlar majmui sifatida olamning lisoniy manzarasidan kengroq va boyroq, chunki olam haqidagi ma'lumotlar inson ongida nafaqat verbal balki noverbal ravishda ham kodlanadi. Shu sabab olamning konseptual manzarasi olamning lisoniy manzarasiga nisbatan murakkabroq, chunki milliy til konseptosfera ichida "yashaydi"⁹.

Birinchi bobning so'nggi faslida **"Xalq og'zaki ijodida ertak janrini o'rganishning lingvomadaniy asoslari"** yoritilgan. Ertak atamasi M.Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida "etuk" tarzida qo'llanilgan¹⁰. Xalqimiz orasida hozirgi paytda ham *cho'pchak, utuk, matal, varsqa* kabi so'zlar ertak ma'nosini anglatadi. O'zbek tilining izohli lug'atida ertak so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan, sehrli-sarguzasht va maishiy mazmundagi epik badiiy asar; *cho'pchak*¹¹.

Faylasuf I.A.Ilin ta'biri bilan aytganda, "ertak – bu odamlarning eng birinchi, din paydo bo'lgunga qadar mavjud bo'lgan ilk falsafasi, ularning erkin afsonaviy obrazlar orqali va badiiy shaklda bayon qilingan hayot falsafasidir"¹². Har bir davr o'ziga xos ertaklarni yaratdi. Inson munosabatlarining xilma-xilligi ularda muhrlangan.

Ingliz tilida ertakni ifodalash uchun *"hikoya, umuman har qanday voqea"* degan ma'noni anglatuvchi *"tale"* so'zi ishlatiladi, u qadimgi ingliz tilidagi *"talu"* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, – *series, calculation*, shuningdek, – *story, tale, statement, deposition, narrative, fable, accusation, action of telling* ma'nolarini beradi. Longman nashriyoti lug'atida *tale* so'ziga *"kimningdir boshidan kechirgan hayajonli voqealar haqida hikoya"* sifatida ta'rif beriladi – *a story about exciting*

⁸ Пименова М.В. Типы концептов. URL:http://www.kuzspa. Ru/diss/ conf _27_ 28/5_pimenova.doc.

⁹ Гришаева Л.И., Цурикова Л.В. Введение в теорию межкультурную коммуникацию. – Москва, 2007. – С. 101.

¹⁰ Қошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк, биринчи том. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1960. – С. 98.

¹¹ ЎТИЛ. 5 Жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси ДИН, 2006. – Б. 51

¹² Ильин И.А. Одинокий художник / Сост. предисл. и примеч. В.И. Белов. – Москва: Искусство, 1993. – С. 240.

*imaginary events... that happened to someone.... "Fairy-tale-tale about fairies (fairy small imaginary being with supernatural powers, able to help or harm human beings)"*¹³.

Xalq ertagi – yozma va og‘zaki folklor san’atining epik janri: turli xalqlar folkloridagi xayoliy voqealar to‘g‘risida prozaik og‘zaki hikoya. Matnlari badiiy adabiyotga asoslangan turli janrdagi asarlarni o‘z ichiga olgan nasriy folklor. *Adabiy ertak* – bu epik janr: badiiy adabiyotga asoslangan, xalq ertagi bilan chambarchas bog‘liq, ammo, farqli o‘laroq, ma’lum bir muallifga tegishli, nashr etilishidan oldingi og‘zaki varianti mavjud bo‘lmagan. Adabiy ertak yoki xalq ertagiga taqlid qiladi (xalq she’riy uslubida yozilgan), yoki folklor bo‘lmagan syujetlar asosida didaktik asar sifatida yaratiladi. Tarixiy jihatdan folklor ertagi adabiy ertakdan oldinroq dunyoga kelgan.

Ertakka bo‘lgan qiziqish, uning arxaik xalq dunyoqarashi, atrofdagi voqelik haqidagi an’anaviy g‘oyalari, u yoki bu etnik guruhning qadriyat yo‘nalishlarini to‘liq shaklda aks ettirishi bilan bog‘liq. Ertaklarni o‘rganish ma’lum darajada madaniyatni o‘rganishdir, ularda xalqning tarixi, dunyoqarashi, intilishi, ozodlik uchun kurashi, falsafasi aks etadi.

“Stepmother/o‘gay ona konseptining lisoniy voqelanishi” nomli ikkinchi bob ham uch faslni o‘z ichiga oladi, uning **“Leksik tizimda stepmother/o‘gay ona konseptining lisoniy voqelanishi”** deb ataluvchi birinchi faslida **“o‘gay ona”** konseptini o‘rganish etnik guruhning dunyoqarashidagi o‘ziga xos xususiyatlar, milliy madaniy qadriyatlar, shuningdek, til sohibi bo‘lgan xalqning tarixiy tajribasini aniqlashga imkon berishi haqida fikr yuritiladi, zero, konseptning mazmuni konsept nomi bilan atalmish hodisa, obyekt haqidagi individual, guruh, sinfiy, milliy va umuminsoniy tushunchalar majmuidan tashkil topadi.

Ikki elementdan tashkil topgan **“o‘gay ona”** konseptining birinchi elementi – **“o‘gay”** so‘ziga o‘zbek tilining izohli lug‘atida *“Oldingi er yoki xotindan bo‘lgan farzandlar hozirgi er yoki xotinga hamda ularning qarindoshlariga nisbatan, shuningdek, hozirgi er yoki xotin va ularning qarindoshlari oldingi er yoki xotindan bo‘lgan bolalarga nisbatan ishlatiladigan so‘z”*, *“Bir onadan tug‘ilmagan yoki bir otadan bo‘lmagan, otasi yoki onasi boshqa, tug‘ishmagan farzandlar”*, *“O‘ziniki bo‘lmagan; yot, begona”*¹⁴ kabi ta’riflar berilgan. *“Otaning nikohidagi qonuniy ikkinchi xotini”* ma’nosining ifoda shakliga nisbatan *“tug‘magan ona”* denotat hisoblanadi, o‘zbek tilida o‘gay ona shaklida, ingliz tilida esa *“o‘z otasining qonuniy ikkinchi xotini”* stepmother leksemasi orqali ifodalanadi.

O‘gay onalarning paydo bo‘lish tarixi sanoat hali shakllanmagan o‘sha davrlarda hayot-mamot masalasi oilaning to‘liq bo‘lishiga bog‘liq bo‘lgan uzoq davrlarga borib taqaladi. Chunki hosil yetishtirish va yig‘ib-terib olish, ro‘zg‘orni saranjom-sarishta tutish kabi vazifalarning to‘g‘ri va to‘liq taqsimlanishi evazigagina oilada tartib saqlangan. Shuning uchun ham beva qolgan erkak kishi motam marosimlari tugagan zahotiy oq darrov qayta uylangan. O‘gay onalar ko‘p

¹³ <https://www.ldoceonline.com/dictionary/tale>

¹⁴ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3 - жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси» ДИН, 2007. – Б. 688

hollarda o‘zlarining oldingi nikohlaridan tug‘ilgan bolalari bilan qabul qilingan. Erining oldingi xotinidan tug‘ilgan bolalarining hayotini zaharlash evaziga o‘gay onalar o‘zlari bilan olib kelgan bolalarining hayotlarini yo‘lga qo‘yishga harakat qilganlar. “O‘gay ona” konsepti o‘zbek tilidagi kabi ingliz tili olam manzarasida ham mavjud. Ushbu konseptga berilgan izohlar quyidagicha:

1. *a woman who is the wife or partner of one’s father after the divorce or separation of one’s parents or the death of one’s mother*¹⁵. 2. *the woman who is married to someone’s father but who is not their real mother*¹⁶. “Stepmother” konseptining etimologiyasi, ya’ni kelib chiqish tarixi qadimgi ingliz tiliga borib taqaladi. “Stepmother” so‘zining ingliz tili yozma manbalarida ilk qayd etilgan sanasi XII asrdan ham avvalroq bo‘lgan davrga tegishli. “Stepmother – a woman who is married to one’s father after the divorce of one’s parents or the death of one’s mother”. Sinonimlari *foster mother, stepparent, stepmom*.

“O‘gay ona” konseptining lisoniy tahlili ko‘rsatishicha, ingliz va o‘zbek tillarida ushbu konseptining *berahm, beshafqat, yovuz ayol* sifatida idrok qilinishida umumiylik aniqlandi. Ingliz va o‘zbek lisoniy ongi yadrosida o‘gay ona konsepti personifikatsiyalashgan holda *berahm, beshafqat, yovuz ayol* so‘zlari hamda kishilarning ijtimoiy mavqeini bildiruvchi *uy bekasi/housewife, rafika / wife* so‘zlari orqali ifodalanadi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “**Stepmother/o‘gay ona konseptining struktur-semantik tahlili**”ga bag‘ishlangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra konseptning milliy o‘ziga xosligi quyidagilar bilan belgilanadi: 1) konsept strukturasi tilning milliy o‘ziga xos lingvomadaniy birliklarining mavjudligi; 2) bunday mental muhit etnosning lisoniy ongida taqsimlanishining o‘ziga xosligi; 3) tilning struktural o‘ziga xosligi.

Ushbu faslda hozirgi zamon o‘zbek tilidagi so‘z birikmasining “**sifat+ot**” (A+N) modeli asosida yasalgan “o‘gay ona” hamda ingliz tilidagi “**ot+ot**” (N+N) modeliga tegishli qo‘shma so‘z “stepmother” konseptlarining qiyosiy struktur-semantik tuzilishi tahlilga tortilgan. O‘zaro grammatik va mazmuniy jihatdan bog‘lanib obyektiv borliqdagi narsa va hodisalarning nomini bildiruvchi sintaktik birlik so‘z birikmasi sanaladi. Agar shu ta’rifga ergashadigan bo‘lsak, unda qo‘sh komponentdan iborat bo‘lgan “o‘gay ona” konsepti erkin so‘z birikmasi hisoblanadi, uning birinchi komponentini sifat so‘z turkumiga mansub “o‘gay” va ikkinchi komponentini ot so‘z turkumiga tegishli “ona” leksemalari tashkil qilmoqda.

“Sifat+ot” (A+N) modelidagi “o‘gay ona” so‘z birikmasi elementlari o‘zaro atributiv munosabat asosida yasalgan bo‘lib, atributiv munosabat belgi + predmet semantik modelidagi so‘z birikmasi uchun xosdir. So‘z birikmasi ma’lum gap bo‘laklariga kengayishidan hosil bo‘ladi. Kengayuvchi bo‘lakning qaysi so‘z turkumiga mansubligi hamda qanday kategorial belgiga ega bo‘lishi: uning qanday so‘zlar bilan kengayib kelishi mumkinligini ham ko‘rsatadi, demak, *o‘gay*

¹⁵ Merriam-Webster's Dictionary of English Usage. Merriam-Webster, Incorporated, 1989. – P. 872.

¹⁶ Cambridge Academic Content Dictionary. Cambridge University Press, 2017. – P. 1156.

soʻzining representlari faqatgina sifat soʻz turkumiga, *ona* soʻziniki esa ot soʻz turkumiga tegishli boʻlmogʻi lozim. Qismlarining erkin yoki bogʻliqligiga koʻra soʻz birikmalari erkin va bogʻliq birikmalarga boʻlinadi. Biz tahlilga tortgan *oʻgay ona* soʻz birikmasi erkin soʻz birikmasi boʻlib, erkinligi uning komponentlarini oʻzgartirish mumkinligi bilan asoslanadi:

oʻgay ona – *tuqqan ona* – *begona ona* – *yosh ona* – *koʻp bolali ona* va hokazo, *oʻgay ona* – *oʻgay qiz* – *oʻgay bola* – *oʻgay ota* – *oʻgay farzand...* representlar asosiy element oʻrnini egallashi mumkin boʻlgan bu kabi erkin soʻz birikmalarini cheksiz yaratish mumkin, bunda semantika oʻzgaradi. “*Oʻgay ona*” konseptining birinchi elementi boʻlmish *oʻgay* soʻzining “*Oʻzbek tilining izohli lugʻati*”da 3 ta maʼnosi, *ona* soʻzining esa 6 ta maʼnosi berilgan. Jumladan, quyidagi misollarda *oʻgay* soʻzining koʻchma maʼnosi verballashganini uchratishimiz mumkin: – *Mustamlakachi chor maʼmurlari mahalliy mehnatkashlarni oʻzlariga oʻgay koʻrardilar*¹⁷; – *Dangalini aytaverish kerak, avvallari bu mashinaga odamlarimiz oʻgayroq qaradi*¹⁸.

Ingliz tili soʻzlari oʻzlarining polisemantiklik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Biz tahlilga tortgan “stepmother” konsepti ikki soʻzning birlashuvidan tuzilgan qoʻshma soʻz boʻlib, birinchi elementi *step* soʻzining lugʻatda ot soʻz turkumi sifatida 11 ta maʼnosi, feʼl soʻz turkumi sifatida esa 10 ta maʼnosi keltirilgan: *step* – *measure, footstep, pace, stride, stair, gradation, stone’s throw, distance, footfall, tone, interval, footmark, footprint, dancstep, go, move, travel, locomote, tread, walk, lay, put, set, pace, etc.*: *Etymologically, a stepfather or stepmother is one who becomes father or mother to an orphan, but the notion of orphanage faded in XX c. and came to denote simply relation through marriage.* “Stepmother” konseptining etimologiyasiga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, “step” soʻzi ham qachonlardir sifat soʻz turkumiga mansub boʻlgan¹⁹. Ushbu konseptning ikkinchi elementi *mother* soʻzining esa lugʻatda ot soʻz turkumi sifatida 5 ta maʼnosi, feʼl soʻz turkumi sifatida esa 2 ta maʼnosi keltirilgan: *mother* – *female parent, barm, yeast, a term of address for an elderly woman, mother superior, inspiration, fuss, overprotect, beget, bring forth, engender, make children, etc.*

Navbatdagi fasl “**Gʻarb va sharq xalqlari adabiyotida oʻgay ona va oʻgay qiz konseptlarining tarixiy-genetik tahlili**”ga bagʻishlangan. Maʼlumki, adabiyotshunoslik sohasidagi muhim vazifalardan biri Gʻarb va Sharq oʻrtasidagi adabiy aloqalarni oʻrganishga qaratilgan. Gʻarb va Sharq mamlakatlari madaniy munosabatlarining rivojlanishi bosqichida esa taqqoslash va xulosalash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Oʻgay onaning chegara bilmaydigan yovuzliklari haqidagi asarlar shunchalik qadimiy tarixga egaki, mumtoz adabiyot matnlarida ham bu haqidagi qaydlarni uchratish mumkin: “*oʻlimi yaqinlashganini bilgan ona eriga qayta uylanmasligini soʻrab, iltijo qildi, u oʻgay ona bolalariga yomon munosabatda boʻlishidan xavotirda edi...*” (muallif Alkestis Alcestis, eramizdan oldingi 438-yil, yunon mumtoz adabiyoti). XVII – XVIII asrlar chegarasida N.Rou tomonidan yozilgan “Shuhratparast oʻgay ona” pyesasi ushbu mavzuda yaratilgan

¹⁷ Сафаров Н. Момақалдиروق. – Тошкент, 1981. – Б. 231.

¹⁸ Назир Х. Ўтлар туташганда. – Тошкент, 1960. – Б. 200.

¹⁹ (see steep (adj.)) 76 sahifa

ilk asarning yorqin namunasidir. O‘zbek folkloridan ayrim namunalarni dastlab yozib oluvchi va nashr etuvchilar XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida yashagan Yevropa sayyohlari, elchilari va olimlari bo‘lganlar.

Ingliz va o‘zbek xalq ertaklari tizimini o‘rganishda, bu tizim, birinchidan, ulardagi g‘oyaviy-badiiy tamoyillar umumiyliklarga; ikkinchidan, ularning tarixan taraqqiy etgan o‘zaro munosabatlariga; uchinchidan, ular tarixidagi umumiylikka bog‘liq holda vujudga kelishini tahlil qilish muhim hisoblanadi:

1. *Ingliz va o‘zbek xalq ertaklaridagi g‘oyaviy-badiiy tamoyillar umumiyliklari.*

Har ikkala xalq ertak matnlaridagi o‘gay ona konseptlarini bir-biridan farqlaydigan xususiyatlari bo‘lishiga qaramay, mushtarak etuvchi jihatlari ham mavjudki, shu mushtaraklik ularni yagona tizimga bo‘ysundiradi: a) ingliz va o‘zbek ertak matnlari g‘oyaviy mohiyatiga ko‘ra o‘zaro mushtarak bo‘lib, ularning hammasida ham xalq hayoti, ruhiyati, orzu-umidlari, shodlik va kulfatlari ifodalangan, har ikki millat adabiy matnlarida “stepmother/o‘gay ona” konsepti xalqning ma‘lum vakillari ruhiyatini tasvirlashga xizmat qiladi; b) ingliz va o‘zbek ertaklari orasidagi o‘zaro aloqa ularning voqelikni aks ettirishdagi o‘xshashligida ham ko‘rinadi, har ikki millatning ertaklaridagi o‘gay ona konsepti ham ma‘lum darajada xalq tarixini aks ettiradi; v) ingliz va o‘zbek ertaklari g‘oyaviy mushtarakligi, voqelikni ifodalashi kabi vazifalarining hamohangligi ularda mavzu, syujet va obrazlarning, jumladan, o‘gay ona konseptining ham o‘xshashligini, umumiylikni yuzaga keltiradi; g) ingliz va o‘zbek ertaklari uchun xalq estetik tamoyillari ham umumiy bo‘lib, soddalik, qisqalik, ixchamlik, syujetlilik, tabiat tasviri, qahramonlar, ya‘ni o‘gay qiz konsepti orqali ijobiy va o‘gay ona konsepti orqali salbiy qahramon axloqiy bahosining aniqligini ta‘minlaydi.

2. *Ingliz va o‘zbek ertak matnlarining o‘zaro munosabatlariga oid mushtarakliklari.* Konseptlarning o‘zaro munosabatlari g‘oyat murakkab jarayon bo‘lib, u o‘zaro ta‘sir, bir-biriga muvofiqlashish va bir-birini boyitish tarzida kechadi: ertaklardagi “stepmother/o‘gay ona” konseptining yuzaga kelishida ikkinchi birining manbalik vazifasini o‘tashi genetik aloqaning asosiy xususiyati hisoblanadi. Masalan, Sh.Perro ertagi zamirida aka-uka Grimmlar, ularning ertagiga taqlidan D.Bazile o‘gay ona va o‘gay qiz haqidagi ertaklarni yaratganlar, keyinchalik rus xalq ertaklari dunyoga kelgan. Demak, ayrim ertak namunalarning yaratilishida boshqa xalq ertaklari manba bo‘lgan, o‘z navbatida, bir konsept zamirida boshqasi yuzaga kelgan.

3. *Ingliz va o‘zbek xalq ertaklarining tarixiy o‘xshashlik tamoyili.* O‘zbek folklori janrlari birdaniga va bir vaqtda yuzaga kelmagan. Folklorning eng qadimiy janrlari – mif, afsona, rivoyat, so‘z sehriga asoslangan qo‘shiqlar, shuningdek, mavsumiy marosim qo‘shiqlari, ulardan keyingi bosqichda esa, ertak janri yuzaga kelgan. Ingliz xalq og‘zaki ijodi janrlari ham, avvalo, miflardan dostonlarga, dostonlardan ertaklarga, ertak va dostonlardan tarixiy va romantik qo‘shiqlargacha bo‘lgan bosqichda rivojlandi.

O‘gay ona tomonidan o‘gay qizining xo‘rlanishi syujeti ko‘pgina xalqlarning folklori, jumladan, G‘arb va Sharq xalqlarining ertaklarida ham uchraydi. Bunga misol qilib koreys xalq ertaklari “Kxonchxi va Pxatchxi”, “Atirgul va Nilufar”,

vetnam xalq ertagi “Oltin boshmoqcha”, ingliz xalq ertaklari “Sinderella”, “Qamish qalpoq”, kreol xalq ertagi “O‘z otasini tuzdan ko‘ra ko‘proq yaxshi ko‘rgani uchun malika qanday surgun qilindi”, fransuz xalq ertagi “Sendrillon” va uning bir necha xil variantlari, italyan xalq ertagi “Senerentola”, nemis xalq ertaklari “Ashenputtl”, “Oqoyim va Guloyim”, o‘zbek xalq ertaklari “Zumrad va Qimmat”, “Yoriltosh” va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin. Bu ertaklarning barchasida o‘gay onaning yovuzligi chek-chegara bilmaydi. O‘gay qiz obrazi barcha xalqlar ertaklarida aynan mehnatsevarligi bilan o‘z baxtiga erishgan qiz obrazi sifatida ta’riflanadi. O‘gay qiz haqidagi G‘arb ertaklari Sharq ertaklariga nisbatan o‘zaro ko‘proq umumiylikka ega. Tadqiqotimizda g‘arb va sharq xalqlari adabiyotida “O‘gay ona” va “O‘gay qiz” konseptlarining tarixiy-genetik tahlili quyidagi tuzilma barcha ertaklar uchun bir xil ekanligini aniqladik:

1. qahramon qiz yetim bo‘lib qoladi, oilada o‘z qiz(lar)i yoki o‘g‘li (o‘g‘illari) bilan o‘gay ona paydo bo‘ladi;

2. qahramon qiz turli sinovlarga duch keladi, o‘gay ona va o‘gay opa-singillar tomonidan xo‘rlanadi, og‘ir mehnat qiladi, och qoladi, yirtiq-yamoq kiyim kiyadi;

3. qahramon qiz ilohiy kuch yoki sehrli yordamchilar tufayli barcha to‘siqlarni yengadi;

4. qahramon qiz yangi ko‘rinishda: yangi kiyimda, zebu-ziynat ichida, yaxshi munosabatga sazovor;

5. qahramon qiz o‘zining taxtiravoniga ko‘tariladi: tun tongga, zulmat yorug‘likka, qiyinchilik farovonlikka aylanadi, mehribonligi uchun taqdirlanadi.

Dunyo xalqlarining ertaklari milliy va umuminsoniy hodisadir, ularning badiiy va tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Lekin bir narsa doimiy ustunlikka ega, bu g‘arb bo‘ladimi yoki sharq, barcha xalqlarning ertaklari o‘gay onaning ustidan o‘gay qiz, demakki yovuzlik ustidan yaxshilik g‘alaba qozonishiga o‘rgatadi.

“Stepmother/o‘gay ona konseptining chog‘ishtirma talqini” deya nomlangan uchinchi bobning birinchi faslida **“Olam lisoniy manzarasida stepmother/o‘gay ona konseptining lingvomadaniy xususiyatlari”** o‘rganilgan, ikkinchi faslida **“Stepmother/o‘gay ona konseptining ingliz va o‘zbek xalq ertaklarida qo‘llanilishidagi o‘xshash jihatlar”** va uchinchi faslida **“Ingliz va o‘zbek xalq ertaklarida stepmother/o‘gay ona konseptining farqli jihatlar”** aniqlangan. E.Begmatov o‘zining tadqiqot ishlarida “antropoimik birliklarda antropotsentrik usul uchun material beradigan xususiyatlar”²⁰ni aniqlagan, demak, “stepmother/o‘gay ona” konseptining insonni atash xususiyati ham uni antropotsentrik paradigma asosida o‘rganish uchun asos bo‘la oladi.

1-jadval

“Stepmother/O‘gay ona” konseptining mavzuiy guruhlari

	Mavzuiy guruhlar	Mavzuiy guruhlarga oid tushunchalar	Mavzuiy guruhlarni voqelantiruvchi til birliklar
1.	Maishiy tushunchalar	Uy – turar joy, xo‘jalik, anjomlar, yegulik, bayram, mehmondorchilik, dam olish	Servant, host, hostess, breakfast, tea, travelling, holidays, Christmas, Thanksgiving Day, turkey Uy bekasi, mezbon, nonushta, choy, sayohat, bayram

²⁰ Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. –Тошкент: Фан, 2013. – Б. 264.

2.	<i>Qarindoshlik aloqalari</i>	Nikoh, farzand, qarindosh, avlod.	Wife, mother, child, laws, aunt, uncle, grands, cousin, niece, nephew, relatives, ancestors Xotin, ona, bola, qonun, xola, tog'a, jiyan, avlod
3.	<i>Jismoniy, psixofiziologik, psixologik xarakteristikasi</i>	Badan, sog'lik, qobiliyat, yumor, samimiylilik.	Beautiful, intellegent, smart, supermind, joyful, chill, fabulous, tall, little, short, small, spot Chiroyli, ziyoli, aqli, quvnoq, kelishgan, kalta, nozik, kichkina
4.	<i>His-tuyg'ular</i>	Quvonch–shodlik, muhabbat, g'am–andux, qo'rquv, g'azab, nafrat.	Happy, happiness, joy, jelious, angry, sad, grump, confident, conscious, glad, love, adore, worry, doubt Baxtli, baxt, rashk, g'azab, muhabbat, quvonch
5.	<i>Moddiy, ijtimoiy, ma'naviy, madaniyat tushunchalari</i>	Moddiy nozu–ne'matlar, mehnat, bilim, do'stlik, mardlik, etika, estetika, ona tili, e'tiqod, insonparvarlik.	Wealth, harvest, national products, work, education, friendship, fellowship, brave, strong, ethic, esthetic, native language, religion, faith, mankind. To'kinchilik, milliy mahsulot, ta'lim, do'stlik, ona tili, din, kuch, ish, etnik, insoniyat.
6.	<i>Vaqt kategoriyalari</i>	Yosh, tug'ilish, o'lim, o'tmish, kelajak.	Adult, age, young, child, grands, girl, boy, lady, fiancée, old, elder, green, white. O'smir, yosh, qiz, xonim, kampir
7.	<i>Fazo-makon kategoriyalari</i>	Tabiat, koinot, yo'l	Nature, space, road, valley, forest, area, view, picturesque, tree, bushes, star, planet, earth. Tabiat, koinot, yo'l, o'rmon, hudud, daraxt, yer

Ushbu jadvalda “Stepmother/o‘gay ona” konseptining lingvomadaniy xususiyatlari aks ettirilgan:

1. “Stepmother/o‘gay ona” konsepti maishiy tushunchalarni ifodalaydi. O‘gay ona konseptining strukturaviy tuzilishiga ko‘ra uning tarkibidan ona komponenti joy olgan, demak ushbu konsept ayol konseptosferasining uzoq sarhadidan o‘rin oladi. Ayol esa, avvalo, uy bekasi va uy – turar joy, xo‘jalik, anjomlar, yegulik, bayram, mehmondorchilik, dam olish (servant, host, hostess, breakfast, tea, travelling, holidays, Christmas, etc.) kabi tushunchalar u bilan chambarchas bog‘liq. “Stepmother/o‘gay ona” konseptining ijtimoiy munosabatlar tamoyili, kommunikatsiya, madaniy namunalarni tashkil qilib madaniyat tizimini belgilovchi lingvomadaniy xususiyati ingliz va o‘zbek tillari uchun o‘xshash ekanligi aniqlandi;

2. “Stepmother/o‘gay ona” konsepti qarindoshlik atamasi sifatida qarindoshlik aloqalarini ifodalaydi, o‘gay onaning nikoh asosida oila a‘zosiga aylanishi, ota uchun qonuniy rafiqa, oiladagi farzandlar uchun esa o‘gay ona maqomiga ega bo‘lishi, uning navbatdagi lingvomadaniy xususiyati, ya‘ni madaniy an‘analarga tegishli ekanligini belgilab beradi. Ma‘lumki, madaniy an‘analar – integral hodisa bo‘lib, unda ijtimoiy stereotiplashgan tajriba ifodalanadi. Demak, ushbu lingvomadaniy xususiyat ingliz va o‘zbek tillari uchun ham integral;

3. Ingliz va o‘zbek xalq ertaklarida “stepmother/o‘gay ona” konseptining jismoniy, psixofiziologik, psixologik xarakteristikasi tasvirlanishi orqali ushbu konseptning yana bir lingvomadaniy xususiyati, ya‘ni milliy mentalitetni aks ettirishi namoyon bo‘ladi. Mentalitet (o‘zlik) – biror millatning mentalligi, aqliy boyligi, ruhiy xazinasining ichki tuzilishi va farqlanishini aks ettiruvchi kategoriyadir. Xalqning mentalligi tilning nisbatan muhim konseptlarida faollashadi. “Stepmother/o‘gay ona” konseptining ushbu aspektda faollashuvi ushbu lingvomadaniy xususiyat ingliz va o‘zbek tillari uchun farqli ekanligini ko‘rsatdi: o‘gay ona ingliz xalq ertaklarida yosh va go‘zal bo‘lishi mumkin, ammo o‘zbek xalq ertaklarida u doimo yoshi o‘tgan va xunuk qiyofada tasvirlanadi,

ularni birlashtiradigan jihat – har ikkala xalq ertaklarida o‘gay onaning yovuz sifatida ta’riflanishi;

4. “Stepmother/o‘gay ona” konsepti antropotsentrik paradigma asosida o‘rganilmoqda, demak insonlarga xos bo‘lgan his-tuyg‘ular, jumladan, quvonch-shodlik, muhabbat, g‘am-anduh, qo‘rquv, g‘azab, nafrat (happy, happiness, joy, jealous, angry, sad, grump, confident, conscious, glad, love, adore, worry, doubt) kabi hissiyotlardan xoli bo‘la olmaydi. Ushbu konseptning navbatdagi lingvomadaniy xususiyati uning sotsioetnik jihat, ya’ni o‘zini anglash tushunchasidir. Odamlarning xulq-atvorini belgilaydigan qadriyatlar, eng qimmatli belgilar olam lisoniy manzarasining eng muhim qismini tashkil qiladi. “Stepmother/o‘gay ona” konseptining sotsioetnik xususiyati ingliz va o‘zbek tillari uchun o‘xshash ekanligi aniqlandi;

5. “Stepmother/o‘gay ona” konsepti qo‘llanishining muloqot muhiti va maqsadi bilan bog‘liq ekanligi uning sotsiolingvistik xususiyatidan dalolat beradi, chunki ushbu konsept moddiy, ijtimoiy, ma’naviy, madaniyat kabi tushunchalarni o‘zida aks ettiradi. Aynan moddiy nozu-ne‘matlar, mehnat, bilim, do‘stlik, mardlik, etika, estetika, ona tili, e’tiqod, insonparvarlik (wealth, harvest, national products, work, education, friendship, fellowship, brave, strong, ethic, esthetic, native language, religion, faith, mankind) kabi tushunchalar insonlarni hayvonlardan ajratib turadi, tartibsizliklardan saqlab, hayot tarzini bir maromda ushlab turadi. “Stepmother/o‘gay ona” konseptining sotsiolingvistik xususiyati ingliz va o‘zbek tillarida o‘xshashligi aniqlandi;

6. “Stepmother/o‘gay ona” konseptining lingvomadaniy xususiyatlari haqida gapirganda hisobga olinishi kerak bo‘lgan yana bir tushuncha vaqt kategoriyalaridir. Vaqt tushunchasi fazoviy kategorianing zamon tushunchasi bilan uyg‘unlik kasb etadi va o‘gay onaning yoshi haqida ma’lumot berishda qo‘llaniladi, shuningdek, ertaklarda vaqt kategoriyasi tug‘ilish, o‘lim, o‘tmish, kelajak (adult, age, young, child, student, pupil, grand, girl, boy, lady, fiancée, old, elder) kabi birliklar orqali ifodalanadi.

7. Jadvalda keltirilgan oxirgi lingvomadaniy xususiyat fazo-makon kategoriyasi bo‘lib, o‘gay onaning saroyda (ingliz xalq ertaklari) yoki kulbada (o‘zbek xalq ertaklari) yashashini tasvirlash makon kategoriyasini anglatuvchi birliklar orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ingliz va o‘zbek xalq ertaklarida tabiat, koinot, yo‘l, o‘rmon, hudud, daraxt, yer (nature, space, road, valley, forest, area, view, picturesque, tree, bushes, star, planet, earth) va boshqa makonni ifodalovchi birliklar keng qo‘llanishda ekanligi aniqlandi.

Ingliz va o‘zbek xalqlari – bir-biridan madaniy, mintaqaviy va hududiy uzoq bo‘lgan ikki davlat xalq og‘zaki ijodidagi o‘xshashlik va bir xillilikni ochib berish orqali millatlar orasida bu kabi o‘xshashliklar uchrashini isbotlash bugungi kun qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik yo‘nalishlarida zaruriy tadqiqotlardan biri hisoblanadi. O‘gay ona tipidagi turkum ertaklar necha asrlardan buyon o‘quvchilarni mungli motivlari bilan o‘ziga jalb etib keladi. Ushbu ertaklarning obraz va motivlar tizimi real haqiqat, o‘gaylik an‘analari va yetimlik bilan bog‘liq qadimiy tushunchalar atrofida yuzaga kelib ta’limiy-estetik funksiyalarni ado etadilar.

**“Stepmother/o‘gay ona” turkumli ertaklarning o‘xshash jihatlari
(“Sindrella”, “Zumrad va Qimmat” ertaklari misolida):**

Atoqli otlarning etnomadaniy axborotga egaligi	
Qimmat nomi dangasalik tushunchasi, Zumrad, Cinderella nomi esa mehnatsevarlik tushunchalari bilan uyg‘unlashadi	
Biologik otaning o‘rni	
Passiv	
Jonlantirilgan tabiat	
<i>“Cinderella, notwithstanding her coarse apparel, was a hundred times more beautiful than her sisters, although they were always dressed very richly. When she sang all flowers and birds sang with her”</i>	<i>“Zumrad dam olganda gullar olqishlar, boshlarini egib salom berarmish, maysalar ustida o‘tirib dam olganda gullar quvonib unga hikoyalar aytib berarkan”</i>
O‘gay opa-singillarni taqqoslashdagi sehrli bo‘rttirishlar	
<i>“All nature was against her sisters, when they appeared all flowers close and birds stopped chirping”</i>	<i>“Qimmat kelsa butun gullar qovog‘ini o‘yib, maysalar oyog‘iga poyonoz bo‘lishdan bosh tortisharkan, uning yo‘lida fakat tosh-xarsanglar uchrarkan”</i>
Ideallashtirilgan bosh qahramon	
<i>“She was so kind and looked like as thousand lights shone upon her. And she was so beautiful that everyone who saw her was amazed. She was so open hearted and always helped to everybody even to animals”</i>	<i>“Zumrad ko‘p chiroyli, odobli, muloyim, aqlli qiz ekan, uni ko‘rganda ko‘zlar qamashib, chiroyiga hattoki oy ham hasad qilar ekan. Butun tabiat uning yaxshiligidan orom olar ekan”</i>
Ilohiy yordamchilar	
cho‘qintirgan ona – farishta	o‘rmonda yashovchi kampir
Sehrlilik xususiyati	
<i>“Oh, yes,” she cried; “but must I go in these nasty rags?” Her godmother then touched her with her wand, and, at the same instant, her clothes turned into cloth of gold and silver, all beset with jewels.</i>	<i>Qiz qizil sandiqni ochishi bilan hamma hayron qolibdi: qizil sandiq asl mollar bilan liq to‘la ekan. Mol shuncha ko‘p, shu qadar ajoyib emishki, Zumradning butun umriga yetib ortar emish</i>
O‘gay qizni tahqirlash	
<i>“They took her pretty clothes away from her, put an old grey bedgown on her, and gave her wooden shoes. There she had to do hard work from morning till night, get up before daybreak, carry water, light fires, cook and wash”</i>	<i>U hadeb qizni urib, qarg‘ab, ertadan kechgacha ishlatarkan, bechoraga birpas ham tinchlik bermas ekan.</i>

Butunlay boshqa-boshqa millat, madaniyatga taalluqli ertaklardagi o‘gay onalarning har biri o‘z mentalitetidan kelib chiqqan holda, juda ko‘p o‘xshash xususiyatlarga ega: zolim, o‘z qizini yaxshi ko‘radi, o‘gay qizi, hatto o‘gay o‘g‘liga kun bermaydi, sehr-jodu bilan shug‘ullanadi, ota-qiz o‘rtasidagi munosabatlarga putur yetkazadi, o‘gay qizdan qutulishni xohlaydi, erini o‘z izmiga soladi, hokimiyatni o‘z qo‘liga olish uchun harakat qiladi.

Ingliz va o‘zbek xalq ertaklarida sehrli predmetlarga keng murojaat qilinadi. O‘zbek va ingliz xalq ertaklarida keng tarqalgan o‘xshash obraz – bu sehrli ko‘zgu obrazidir. Masalan, “Snow-white” – “Oppog‘oy” ingliz xalq ertagida o‘gay ona –

qirolichaning sehrli ko'zgusi bo'lib, u doimo dunyodagi eng go'zal kim ekanligini, bu borada undan o'tadigan odam bu yorug' olamda bormi yoki yo'qligini so'raydi: *Now the queen was the most beautiful woman in all the land, and very proud of her beauty. She had a mirror, which she stood in front of every morning, and asked: Mirror, mirror, on the wall, who in this land is fairest of all? And the mirror always said: you, my queen, are fairest of all.*

Insonda sanashga ehtiyoj tug'ilgan juda olis zamonlardanoq turmushdagi turli hodisalar sirini muayyan raqamlarga bog'lash an'anasi paydo bo'lgan. Sanoq tizimidagi dastlabki an'analar uch raqami bilan bog'liq: *uch kechayu uch kunduz to'y beribdi, uchta shart qo'yibdi, uch kun o'tib, xabar olsa...*. Ingliz va o'zbek xalq ertaklarida yetti raqami ham alohida sehrli qudratga ega, bu raqam ertak syujetini yakuniga yetaklaydi. "Snow-White and Seven Dwarfs" ("Oppog'oy va yetti gnom") ertagidagi yetti gnom singari g'ayrioddiy ko'makchilar qahramonning mifologik tabiatini tashkil etadi. O'zbek xalq ertaklarida uchraydigan yetti raqami bilan bog'liq yana bir ibora "Haq saloming bo'lmasa, yetti yamlab, bir yutardim", odob-axloq qoidalariga o'rgatishda xizmat qiladi. Raqamlarning bu kabi xususiyatlari millat va elatlar tarixida ularning o'rnini bir xil ekanligini ko'rsatadi.

O'gay ona personajini ertaklar matnlarida chog'ishtirma tahlil qilish turli etnik guruhlar o'rtasida an'anaviy ravishda shakllanib kelgan xususiyatlarning farqlarini aniqlashda yordam beradi. "Stepmother/o'gay ona" konseptining ingliz va o'zbek ertaklarida qo'llanilishidagi farqli jihatlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) ingliz ertaklarida o'gay onalarning qizidan qutulishi uchun motiv hasad va rashk bo'lsa, o'zbek tilidagi ertaklarda esa bu ochko'zlik bilan izohlanadi: – *"Why are you so cruel?" a baffled Cinderella, after years of abuse, asks her stepmother. "Because you are young, and innocent, and good";* – Mol shuncha ko'p, shu qadar ajoyib emishki, Zumradning butun umriga yetib ortar emish. Bu narsa o'gay onani og'ir tashvishga solibdi. U cholga qizi Qimmatni ham tezda o'rmonga olib borib adashtirib kelishni buyuribdi. Mening aqlli qizim qimmatli mollar keltiradi, - debdi u.

2) ingliz ertaklarida o'gay onaning xarakterida ayyorlik va mag'rurlik kuzatilsa, o'zbek tilida esa janjalkashlik, yolg'onchilik dominantlik qiladi: – *but she was proud and arrogant, and she could not stand it if anyone might surpass her in beauty;* – Bir kun kampir Zumradni yomonlab, cholga do'q uribdi: – Qizing beodob, ishyoqmas, uni haydab yubor! Bo'lmasa sen bilan bir nafas ham birga turmayman!

3) ingliz ertaklarida o'gay onaning tashqi qiyofasi "She was a beautiful woman", o'zbek ertaklarida esa "qo'rqinchli, qovog'idan qor yog'ar edi" kabi tasvirlanadi. Yovuzlik va go'zallik yonma-yon tasvirlangan ingliz ertagidan farqli o'laroq, o'zbek xalq ertaklaridagi yovuz, johil, berahm o'gay ona hech qachon go'zal tarzida tasvirlanmaydi.


4) ingliz ertaklarida o'gay onaning sehr-jodudan foydalanishi aytilsa, o'zbek xalq ertaklarida bu yumush o'gay ona tomonidan bajarilmaydi, balki boshqa personajlarga murojaat etish orqali amalga oshiriladi: *"It's only a poor old woman," came a squeaky voice, "selling apples." Yet it was the evil Queen,*

disguised as an old woman; – Chol nima qilarini bilmay qolibdi. Axiri kampir: – Qizingni o‘rmonga oborib adashtirib kel! – debdi.

5) ingliz va o‘zbek xalq ertaklaridagi o‘gay onalarning o‘gay qizdan qutulish usullarida ham farqlar kuzatiladi: *“Kill her, and as proof that she is dead bring her lungs and her liver back to me”*; *“Qizingni o‘rmonga oborib adashtirib kel!”* Ingliz xalq ertaklarida shavqatsizlik elementlari ko‘proq aniqlandi.

6) ingliz va o‘zbek xalq ertaklaridagi o‘gay onalarning jamiyatda tutgan o‘rnini belgilash ham har ikkala xalqning milliy mentalitetidan kelib chiqadi. Ingliz xalq ertaklarida salbiy hisoblangan o‘gay ona *qirolicha* tarzida ifodalanishi mumkin, ammo o‘zbek xalq ertaklarida *omi*, *savodsiz*, hech qanday martabaga ega emas shaxs sifatida ushbu obrazning salbiy qahramon ekanligi ochib beriladi, ularning turmush tarzlari ham bir-biridan farq qiladi. Ingliz ertagidagi o‘gay ona qirolicha bo‘lib, *katta*, *hashamatli saroyda* yashasa, o‘zbek xalq ertagida o‘gay ona *kamtarona* turmush tarzini kechiradi: – *Once upon a time, a princess named Snow White lived in a castle with her father, the King, and her stepmother, the Queen; – Bir zamonda katta bir soy bo‘yida kichkina bir uy bo‘lar ekan. Bu uyda chol, uning Zumrad degan qizi, o‘gay ona va uning Qimmat degan arzanda qizi turar ekanlar.*

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib ingliz xalq ertaklaridagi **stepmother** konseptosferasining nominativ maydonini quyidagicha tasvirlash mumkin:



1-rasm.


Ingliz tilida “stepmother” konseptosferasining nominativ maydoni quyidagicha ko‘rinish oladi:

I. Konseptosfera yadrosi: *stepmother: woman – mother – wife – witch – queen – stepdaughter.*

II. Yaqin sarhad: *power – pride – evilness – beauty – fortune – envy – appearance – king – aristocracy – wickedness – witchcraft – arrogance – jealousy.*

III. Uzoq sarhad: *inheritance – fear – mirror – ball – castle – mockery – woods – revenge – pretension – competition – vengefulness – torture – poison – terror – magic – murderousness.*

Xuddi shu tariqa o‘zbek xalq ertaklaridagi **o‘gay ona** konseptining nominativ maydonini quyidagicha namoyon etish mumkin:



2-rasm.

I. Konseptosfera yadrosi: *o‘gay ona: ona – ayol – rafiqa – kampir – o‘gay qiz .*

II. Yaqin sarhad: *molparastlik – savodsizlik – qarg‘ish – berahm – hukmronlik – yovuzlik – qarilik – chol – omilik – yolg‘onchilik – mulk – ochko‘zlik – janjalkashlik.*

III. Uzoq sarhad: *makkoralik – qo‘pollik – boylik – mollar – o‘rmon – sandiq – itoatsizlik – maqtanchoqlik – zararkunanda – shavqatsizlik – yalqovlik – yot – hasad – jabr – ajdar – uy.*

Ushbu misollardan ko‘rishimiz mumkinki, “stepmother/o‘gay ona” konseptosferasining yadro va sarhadlari turli konseptlardan tashkil topgan. Ularni tahlil qilish, asnosida shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, ingliz tili “stepmother” konseptosferasi yadrosida mavjud *queen* va *witch* konseptlari o‘zbek tili konseptosferasida mavjud emasligi va aksincha o‘zbek tili “o‘gay ona” konseptosferada o‘rin olgan *kampir* konseptining ingliz konseptosferasida mavjud emasligi aniqlandi. Yadroning boshqa konseptlari har ikkala tilda ham bir xil idrok etiladi, lekin sarhadlarda ko‘pgina farqlarni ko‘rish mumkin. Bu esa konseptlarning milliy xususiyatlari, olamning lisoniy va milliy manzarasidan kelib chiqqan holda farqlanadi.

Nafaqat ingliz va o‘zbek, balki boshqa xalqlar ertaklarining ham salbiy qahramoni – o‘gay ona konseptining barchasi madaniy ahamiyatga ega, ma‘lum pragmatik yukni ko‘taradi va har bir xalq ertaklari matnlarida muntazam ravishda takrorlanadi. Hozirgi kun jahon adabiyotida yaxshi o‘gay onalar obrazlari

yaratilmoqda. Bunga misol qilib Mardjurita Rudolfning “Yaxshi o‘gay ona”, Marni va Shahzoda Jeysonlar qalamiga mansub “Mening sehrli o‘gay onam”, Tami Bucherning “Mening Bonus onam”, Yeva Banting yozgan “Xotira satri”, Lizi Boydning “Unchalik yovuz bo‘lmagan o‘gay ona”, Ahmad Lutfi Qozonchining “O‘gay ona” asarlarini sanab o‘tish mumkin.

“Husn va ilmu odobda benuqson bo‘lgan o‘n to‘qqiz yoshli Fotima nega ikki yetim farzandning otasiga turmushga chiqdi? Onasi-yu, xolalarining tushuntirishlaridan qo‘shni o‘gay onaning sabog‘i kuchliroq ta’sir etdimi?” – deya boshlanadi A.L.Qozonchining o‘gay ona haqidagi romani. Voqealar rivoji shunday chiroyli tasvirlanganki, ongimizda mavjud bo‘lgan yovuz o‘gay ona obrazi o‘z o‘rnini ma’suma, mehribon yaxshi o‘gay onaga qanday bo’shatib berganini sezmay qolasiz. “Ona o‘z tuqqan bolasiga jabr ko‘rsatishi tabiiy, ammo o‘gay bolasiga jabr ko‘rsatishi johillikdir²¹” deya asar muqaddimasida keltirilgan muallifning fikri yer yuzidagi barcha o‘gay onalar uchun shior bo‘lib qolishi kerak.

XULOSA

1. Lingvomadaniyatshunoslik yo‘nalishi orqali muayyan bir xalqning turmush tajribalari, olam haqidagi tasavvurlari va olamni bilishdagi his-tuyg‘ulari ma’lum konseptlarda o‘z aksini topadi va avloddan avlodga o‘tadi. “Stepmother/o‘gay ona” konseptining yadrosi bo‘lgan “woman/ayol” konseptosferasining konseptual maydoni ingliz va o‘zbek tillarida tahlil etildi, lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ham, “ona” konsepti “woman/ayol” konseptosferasining yadrosidan o‘rin oladi, chunki ikki tilda ham insoniyatning muqaddas qadriyatlari aynan shu so‘z bilan chambarchas bog‘liq: *ona vatan, ona yer, motherland, mothertongue*. Konseptologiyada konsept atamasi lisoniy birlik sifatida qo‘llaniladi, konseptlar to‘plami xalqning va shu xalq iste’molida bo‘lgan tilning olamning lisoniy manzarasiga bog‘liq bo‘lgan konseptosferasini tashkil etishi yoritildi.

2. Olam lisoniy manzarasi lingvomadaniyatshunoslikning asosiy tushunchalaridan biri bo‘lib, insonning nutqida aks etadigan olamni idrok etishi hodisasi uning asosini tashkil etadi. Konseptual tahlil obyekti sifatida “o‘gay ona” konsepti orqali “olamning lisoniy manzarasi”da odamning ichki qiyofasini tasvirlash usuli ishlab chiqildi, bunday tahlil usuli insonning ma’naviy turmushini aks ettiruvchi alohida konseptlar tahlilidan hosil bo‘lishi yoki boshqa semantik va semiotik kategoriyalar tahlili orqali shakllantirilishi mumkinligi isbotlandi.

3. Ertak bu tarixiy hodisa bo‘lib, sof poetik to‘qimalar yetakchilikni qo‘lga olgan va odamzod mifologik tarzda fikrlashdan to‘xtagan davridayoq paydo bo‘lgan. Xalq ertakning yaratuvchisi bo‘lib, syujetlar uchun real hayotdan lahzalarni tanlaydi va ularni xayoliy olamida o‘zgartiradi. O‘gay onaning o‘gay qiziga zulm o‘tkazishi kabi kundalik elementlar ertakda afsonaviy etnografik borliqni yaratish uchun “qurilish materiali” vazifasini bajaradi. Tahlillarimiz shuni ko‘rsatdiki, ertaklarning vazifalari ertaklarning mifologik asoslari bilan uzviy bog‘liq, ertaklar odamlarning jamoaviy manfaatlarini, millatning o‘ziga xos

²¹ A.L.Qozonchi. Ўғай она. – Тошент: Янги аср авлоди. 2017. – Б. 3.

xususiyatlarini aks ettiradi, ularda inson va tabiatning, atrofdagi olamning alohida birligi aks etadi.

4. Leksik ma'no hamda u bildiradigan voqelik bir-biridan farqlanadi, ya'ni leksik ma'no – til qurilishi, tushuncha esa – tafakkurga xos hodisadir. *Stepmother* konseptining birinchi elementi – *step* so'zining lug'atda ot so'z turkumi sifatida 11 ta, fe'l so'z turkumi sifatida 10 ta; ikkinchi elementi – *mother* so'zining ot so'z turkumi sifatida 5 ta, fe'l so'z turkumi sifatida 2 ta; *o'gay ona* konseptining birinchi elementi – *o'gay* so'zining 3 ta; ikkinchi elementi – *ona* so'zining esa 6 ta ma'nosi borligi, *o'gay* so'zining ko'chma ma'noda verballashuv holatlari mavjud ekanligi aniqlandi.

5. Konseptual xususiyatlar birinchi navbatda til birliklarining semantik munosabatlari orqali aniqlanadi. So'zlarning ma'nosi, frazeologik birikmalar, jumlar, matnlar ma'lum konseptlarning, jumladan, "*stepmother/o'gay ona*" konseptining ham mazmuni to'g'risida ma'lumot manbai bo'lib xizmat qilishi yoritildi. "*Stepmother/o'gay ona*" konsepti ham, lingvomadaniy konsept sifatida xalq mentaliteti, madaniyati haqidagi boy ma'lumotlarni taqdim etadi.

6. Lingvomadaniy xususiyatlar universalligining ertaklarga xosligi insoniyatning bir butun jamoa sifatida mavjudligini dalillaydi. Eng qadimiy ertak syujetlari zamonaviy ertaklar yoki badiiy asarlar uchun manba bo'lgani kabi, ularning sal o'zgartirilgan shakllari butunlay boshqa-boshqa bo'lgan xalqlarning adabiyotida mavjud. Xususan, ingliz xalq og'zaki ijodi asosan millat o'ziga bo'ysundirgan qabilalar adabiyoti hisobiga rivojlanganligi uchun ham ingliz xalq ertaklarida dunyoning turli xalqlari folklor namunalariga o'xshash jihatlar ko'plab uchrashi isbotlandi. Barcha xalqlarning ertaklarida o'sha xalqning milliy qadriyatlari, tarixi bilan birga milliy xarakteri, tafakkuri ham aks etadi. Buning sababi ularning anonimligida, ya'ni ularning ma'lum mualliflari yo'q, ular xalq tomonidan yaratilganligidadir. Folklor va adabiy ertaklarni ajratish muhim. Adabiy ertak xalq ertaklarining qayta ishlangan ko'rinishi, ma'lum muallifga egaligi adabiy ertaklarning asosiy belgisidir.

7. G'arb va Sharq mamlakatlari madaniy munosabatlarining rivojlanishi bosqichida chog'ishtirma izlanishlar olib borish muhim. Tadqiqotda ingliz, nemis, fransuz, italyan, rus, koreys, vietnam, malayya, yunon, misr, dog'iston, tay, laos va o'zbek xalqlari ertaklari tahlilga tortildi: "*o'gay ona*" va "*o'gay qiz*" konseptlarining tarixiy-genetik tahlili barcha xalqlar ertaklari uchun o'xshash tuzilmaga ega ekanligi aniqlandi.

8. "*Stepmother/o'gay ona*" konseptining ingliz va o'zbek xalq ertaklarida qo'llanilishida bir qator o'xshashliklar va farqlar aniqlandi. O'xshashliklar, asosan, o'gay onaning berahmliigi, o'gay qizdan qutilish istagi, o'z qizini ustun ko'rishi holatlarida namoyon bo'lsa, farqli jihat ularning milliy mentalitetidan kelib chiqadi. O'gay ona haqidagi birorta o'zbek xalq ertagida bu personaj ijobiy baholanmaydi, ammo ingliz xalq ertaklaridan ba'zilarida (Oppog'oyning o'gay onasi) ular sohibjamol qiyofada tasvirlanadi. Ingliz va o'zbek xalq ertaklarida sehrli predmetlar (sehrli ko'zgu, taroq, uzuk)ga keng murojaat qilinadi. Umuman olganda, ertaklarda o'gay ona va o'gay qiz mavzusi qanchalik qadimiy yoki

qanchalik zamonaviy bo'lmasin, bu ikki konsept ortida doimo yovuzlik va yaxshilik tushunchalari yotadi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И
ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА

ЖАЛОЛОВА ФЕРУЗА НОРМУРОДОВНА

**ЛИНГВОКУЛЬТУРНАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПТА “МАЧЕХА”
(НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ НАРОДНЫХ СКАЗОК)**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан за №.B2021.2.PhD/Fil1800.

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tsuull.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Юсупова Шоира Ботировна
кандидат филологических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Маматов Абди Эшонкулович
доктор филологических наук, профессор

Сулаймонова Нилуфар Жабборовна
доктор философии по филол. н. PhD, доцент

Ведущая организация:

Наманганский государственный университет

Защита диссертации состоится «28» 12 2023 года в 12⁰⁰ часов на заседании разового Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 при Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (Адрес: 100100, город Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуфа Хас Ходжиба, дом № 103. Тел.: (99871) 281-42-44; факс: (99871) 281-42-44; e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (зарегистрировано за № 280). Адрес: 100100, город Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуфа Хас Ходжиба, дом № 103. Тел.: (99871) 281-42-44; факс: (99871) 281-42-44.

Автореферат диссертации разослан «19» 12 2023 года.

(Реестр протокола рассылки № 1 от «19» 12 2023 года).


Н.З. Нормуродова
Председатель разового Научного совета по
присуждению учёных степеней, доктор
филологических наук, доцент


К.У. Пардаев
Ученый секретарь разового Научного совета
по присуждению ученых степеней, доктор
филологических наук, доцент


Д.Р. Юсупова
Заместитель председателя разового научного
семинара при Научном совете по
присуждению ученых степеней, доктор
филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Развитие современного мирового языкознания доказывает возможность получения представления о языковой деятельности человека только через сравнительно-типологический анализ антропоцентрической парадигмы или речевых единиц, разработанных такими современными направлениями, как генеративная теория, психолингвистика, лингвокогнитология, лингвокультурология, прагмалингвистика и компьютерная лингвистика, которые начали формироваться вслед за системно-структурной лингвистикой. В теоретическом и практическом аспекте перевод узбекских народных сказок на английский язык и научно-исследовательские работы, посвященные изучению сравнительно-типологических особенностей узбекских и английских народных сказок имеет большое значение в фольклористике.

В настоящее время лингвокультурология – направление, в котором культура народов изучается как определённая форма отношений между людьми – в мировом языкознании признаётся как бурно развивающаяся, находящая в языке свое выражение и устойчивая сфера. Анализ факторов формирования общественного сознания создаёт возможности для сопоставительного исследования взаимоотношений разных культур и механизмов взаимопонимания. Это, в свою очередь, послужило толчком к появлению новых исследований в языкознании, основанных на изучении взаимосвязи языка и культуры. Актуальность темы настоящей диссертации, считающейся сегодня одним из необходимых исследований, находит своё отражение в доказательности общности реалий образа жизни английского и узбекского народов, культурно, регионально и территориально далёких друг от друга, через раскрытие сходных и различных аспектов концепта «Stepmother/мачеха», исследуемого на примере узбекских и английских сказок.

Сегодня, когда в нашей стране остро стоит вопрос обучения иностранным языкам на основе международных программ, важным источником обучения могут служить исследования, посвященные анализу сравнительно-типологических особенностей английских и узбекских народных сказок. Для обеспечения выполнения такой задачи, как «внедрение передовых стандартов высшего образования, в частности, поэтапный переход от образования, учебные программы которого направлены на получение теоретических знаний, к системе образования, направленной на формирование практических навыков, исходя из международного опыта», поставленной в Указе «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года»¹ актуальными

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847сонли “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони; Халқ сўзи, 09.10.2019. № 209 (7439).

являются результаты сравнительно-сопоставительных исследований такого масштаба.

Диссертация в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП–5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», № ПП–3775 от 5 июня 2018 года «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в комплексных реформах, реализуемых в стране», № ПП–2909 от 20 апреля 2017 года «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» и Постановлении Президента Республики Узбекистан, а также в других нормативных правовых документах, касающихся данной сферы.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и техники республики. Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и техники республики: I. «Формирование системы инновационных идей в социально-правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии информированного общества и демократического государства и путей их реализации».

Степень изученности проблемы. Лингвокультурология как научное направление и учебная дисциплина выделилась в языкознании в середине 90-х годов XX века в результате повышения внимания к языку как культурному достоянию. В данный процесс внесли свой вклад Н.Н. Болдырев, А.П. Бабушкин, С.Г. Воркачев, В.В. Воробьев, В.В. Красных, В.А. Маслова, В.Н. Телия, А.Т. Хроленко, З.Д. Попова, И.А. Стернин, Г.Г. Слышкин, А.А. Уфимцева, Н.Д. Арутюнова, А.Г. Гак, Ю.С. Кубрякова, Дж. Лакофф, М. Джонсон, Ш.С. Сафаров, Д.У. Ашурова, А. Ходжиев, У.К. Юсупов, А.Е. Маматов, М.Р. Галиева, М.М. Миртоджиев, А. Нурмонов, Д.С. Худайберганаева, Ш.С. Сирожиддинов, Н. Махмудов, Г.Х. Бакиева²; в

